

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEV TO‘LQIN SHOKIROVICH

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA
KADRLAR TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
USLUBIY ASOSLARI

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
A V T O R E F E R A T I

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of (DSc)
in economics sciences**

Ergashev To‘lqin Shokirovich

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari.....3

Ergashev Tulkin Shokirovich

Методологические основы повышения эффективности подготовки кадров в условиях инновационного развития предпринимательской деятельности 33

Ergashev Tulkin Shokirovich

Methodological foundations for improving the efficiency of personnel training in the innovative development of entrepreneurial activity.....65

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список о опубликованных работ

List of published works 70

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEV TO‘LQIN SHOKIROVICH

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA
KADRLAR TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
USLUBIY ASOSLARI

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
A V T O R E F E R A T I

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3DSc/Iqt1017-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullayev Asliddin Junaydilloyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nizomov Asliddin Badriddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Askarov Nazimjon Niyozovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.I.08.03 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-26-46; faks: (+99865) 224-57-00;

e-mail: info@buxdu.uz)

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 224-57-00; e-mail: buxdu_arm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



O. X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

D. Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

B. N. Navruz-zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish pirovardida innovatsiyalarni yakka yoki guruh shaklida o'zlashtirish, tadbirkorlik subyektlari bilan ilmiy markazlar o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni kengaytirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish amaliyotining jadallashuvi, startup loyihalarga venchur kapital ishtirokidagi investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini ta'minlash orqali tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faollik darajalarini yaxshilashga erishilmoqda. Shuningdek, "global darajada innovatsion tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasidagi mamlakatlar mehnat bozorida bilimga asoslangan yangi turdagi zamonaviy ish o'rinlari soni bo'yicha quyidagi tendensiyalarni namoyon qilmoqda: 2024-yilda AQSH mehnat bozorida bilimga asoslangan ish o'rinlari soni jami ish o'rinlarining 52,7 foizini, Buyuk Britaniyada 52,2 foizini, Germaniyada 46,8 foizini tashkil etgan"¹ holda, mamlakatlardagi tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligi ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilganligi, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlash zaruriyatini oshiradi.

Jahonda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kadrlar va innovatsion loyihalar ta'minoti bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi kasbiy kompetentlik talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash orqali milliy iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion faolligini oshirish, ta'lim–ilm–fan–ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarni chuqurlashtirish hisobiga ilmiy tadqiqot (R&D) ishlarini tijoratlashtirish, hamda, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarni ishlab chiqish jarayonidagi ishtirokini kengaytirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida innovatsiyalarni o'zlashtirishdan ularni ishlab chiqish darajasiga yetishgacha qaratilgan strategik rivojlanish dasturlarining tarkibiy tuzilishi va aniq maqsadli ustuvorliklarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini kadrlar ta'minoti tizimidagi mavjud muammolarni samarali hal etish hisobiga innovatsiyalarni o'zlashtirish, jumladan, innovatsiyalar bozorida tadbirkorlik subyektlari ishtirokini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlari (R&D) tijoratlashtirilishini jadallashtirish, ta'lim–ilm–fan–ishlab chiqarish o'rtasidagi chuqur innovatsion–integratsion munosabatlarga erishish, respublika hududlari kesimida innovatsion ekotizim infratuzilmaviy ta'minoti samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan

¹ GII Innovation Ecosystems & Data Explorer 2024. World Intellectual Property Organization (WIPO). URL: <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/>

xarakterlanadi. Jumladan, “2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”², “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”³, “2022-2026-yillarda Innovatsion rivojlanish strategiyasi”⁴ va “O‘zbekiston – 2030”⁵ strategiyasi kabi davlatning strategik rivojlanish dasturlarida kadrlar tayyorlash samaradorligini ta’minlash asosida mahalliy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishning amaliy jihatdan natijadorligiga erishish, xususan, sohada innovatsion siljishlarga erishish orqali global reytinglardagi milliy iqtisodiyotning tutgan o‘rnini yaxshilash borasidagi maqsadli parametrlar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 15-maydagi PF-86-sonli ““Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁶. Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони. 08.10.2019 й.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони. 28.01.2022 й.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг Инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон фармони, 06.07.2022 й.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон фармони, 11.09.2023 й

⁶ Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanildi: New School Management Approaches: What Works in Innovation in Education. Centre for Educational Research and Innovation / OECD, 2001. – 226 pages; Mandviwalla M., Fadem B., Goul M., George J.F., Hale D.P. Achieving Academic-Industry Collaboration with Departmental Advisory Boards. – MISQ Executive, USA, January, 2015. – 29 pages.; Strebler M.T. Bevan S. Competence Based Management Training. A Study Supported by the IES Co-6

samaradorligini oshirishga qaratilgan standartlarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy qilish asosida tadbirkorlik subyektlari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi kadrlar va innovatsion loyihalar ta'minoti yo'nalishlaridagi o'zaro innovatsion hamkorlik munosabatlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan intellektual mulk muhofazasi bo'yicha standartlar tizimini zamonaviy rivojlanish sharoitiga mos keldigan me'yorlarini ishlab chiqish, innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish darajasi bo'yicha ularda yaratilayotgan ish o'rinlari kesimida kompetensiyalar talablarni shakllantirish orqali korxonalarda innovatsion fikrlovchi kadrlar bandligini ta'minlash hisobiga tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, shuningdek, jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari, jumladan, Jahon intellektual mulk agentligi, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Ta'lim, tadqiqot va innovatsiya markazi (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Yevropa Komissiyasi, turli mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlik talablariga mos keladigan kadrlar tayyorlash tizimini amal qilishida ishtirok etayotgan tashkilotlar, masalan, Bandlikni tadqiq etish instituti (Buyuk Britaniya), Texnologiyalarni uzatish bo'yicha federal idoralararo guruh (AQSH), AQSH energetika va fanlar boshqarmasi (AQSH) tomonidan olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi natijalar olingan: innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, intellektual mulk, ya'ni nomoddiy aktivlar samaradorligini oshirish asosida mehnat bozorida bilimga asoslangan yangi ish o'rinlari bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasiga mos keladigan innovatsion kadrlar ta'minoti tizimini shakllantirish (WIPO); tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini rivojlantirishning innovatsion ekotizimi infratuzilmaviy ta'minoti samaradorligini oshirishda kadrlar tayyorlash mexanizmi orqali ta'lim-ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-integratsion munosabatlarni chuqurlashtirish hisobiga innovatsiyalarni o'zlashtirish samaradorligi ta'minlash (World Bank Group), tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanganlik darajasi bo'yicha zamonaviy ish o'rinlari kesimida

operative Research Programme. Report No. 302. The Institute for Employment Studies, University of Sussex. Brighton, UK. 1996. – 42 pages.; OECD Employment Outlook 2024: The Net-Zero Transition and the Labour Market. – OECD, Paris, 2024. – 290 pages.; Supporting Entrepreneurship and Innovation in Higher Education in Austria. – OECD / European Union – 2019. – 138 pages.; The Jobs and Skills Report 2024: Better Together. Jobs and Skills Australia, Australian Government. November 2024. – 150 pages.; The Role of European Universities in European Innovation Ecosystems – Report – April, 2025. EULiST – 15 pages.; OECD Reviews of Innovation Policy: Germany 2022. Building Agility for Successful Transitions: OECD, 2022. – 343 pages.; Kikkawa T. History of Innovative Entrepreneurs in Japan. Graduate School of International Management, International University of Japan, January, 2023. – 291 pages.; Jobs and Technology. World Bank. October 2024. – 15 pages.; Human Capital for More Jobs: Connecting People to Work and Creating Entrepreneurs. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2024. – 19 pages.; Guide to Implementing Competency-Based Human Resource Management: In a Customs Administration Environment. Sweden, 2023. – 163 pages.; Global Skills Programme. Employment Policy Department ILO Headquarters. 2025. – 40 pages.

innovatsion kasblar bo'yicha kompetentlik talablarini shakllantirish, jumladan, mazkur yo'nalishda oliy ta'lim muassasalari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kadrlar ta'minotiga qaratilgan o'zaro hamkorlik mexanizmlari samaradorligini oshirish (ILO), innovatsion tadbirkorlik subyektlari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida kadrlar tayyorlash va innovatsion loyihalar ta'minoti bo'yicha shartnomaviy hamkorlik mexanizmini takomillashtirish hisobiga ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish (OECD) bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: oliy ta'lim muassasalari huzurida mehnat bozoridagi ish beruvchilar, jumladan, innovatsion tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlash bo'yicha tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish yuzasidan maslahat kengashlari faoliyatini tashkil etish; davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilish, innovatsion tadbirkorlik talablariga mos keladigan kadrlar tayyorlashni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish; ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonida ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini innovatsion tadbirkorlik subyektlari bilan ta'minlash hisobiga innovatsion rivojlanish yo'nalishidagi akademik bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlashning tutgan o'рни, uning zaruriyati, amal qilish mexanizmi, tamoyillari, tarkibiy tuzilishi, uning samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari yirik xorijlik iqtisodchi olimlar M.K. Lim, Y. Albuzi, V. Kourtney, M. Kannistra, T. Kikkava, G. Avendano⁷ kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Yaqin xorijlik iqtisodchilardan N.A. Xramsova, M.S. Reshetnikova, Y. Yesmerova, L. Stalkina, O.O. Romanovskiy, O. Propenko, I. Beyev⁸ kabilar

⁷ Lim M.K. Linkage and Collaboration Between Universities and Industries. Paper presented at SEAMEO RIHED Regional Seminar on Linkage and Collaboration between the Higher Education Institutions and Industries, Da Nang, Vietnam. – Ministry of Education, Singapore, Sept., 2014. – 5 pages; Alzubi Y. Knowledge transfer for sustainability: The role of knowledge enablers in the construction industries in Jordan // World J. Sci. Technol. Sustain. Dev., No 15, 2018. – pp. 325–337; Courtney W., Hartley B, Rosswurm M., LeBlanc L., & Lund C. Establishing and leveraging the expertise of advisory boards // Behavior Analysis in Practice, No. 14, 2021. – pp. 253–263; Cannistra M., Agasisti T., Amagir A., Poder K., Holz O., Vartiak L., & De Witte K. A comparative analysis of financial literacy levels and initiatives among students in five European countries // Research in Comparative and International Education, No 17 (2), 2022. – pp. 246–280; Kikkawa T. History of Innovative Entrepreneurs in Japan // Graduate School of International Management, International University of Japan, January, 2023. – 291 pages; Avendano G., Bowyer S. The use of industry advisory boards in support of collegiate aviation programs // Collegiate Aviation Review International, No 41 (2), 2023. – pp. 164–182.

⁸ Храмцова Н.А. Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельности предприятия//Стратегии бизнеса: анализ, прогноз, управление. – № 10 (54) 2018. – С. 18–22.; Reshetnikova M.S. Innovation and Entrepreneurship in China//European Research Studies Journal. – Volume XXI, Issue 3, 2018. – pp. 506–515.; Esmerova E. Process and Types of Training in Management. Economics and Management// Volume: XIV, Issue: 1, 2018. – pp. 222–229; Satalkina L., & Steiner G. Digital entrepreneurship and its role in innovation systems: A systematic literature review as a basis for future research avenues for sustainable transitions.

tomonidan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, kasbiy kompetentlik talablarini shakllantirish asosida unga mos keladigan oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish amaliyoti tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan O.X.Xamidov, B.N.Navruz-Zoda, D.Sh.Yavmutov, A.O.Ochilov, A.B.Nizamov, G.N.Axunova, X.X.Rejapov, O.A.Ergashev, Sh.Sh.Zaxidova, O.S.Qaxxorov, Sh.A.Raxmatov, N.R.Raxmonov kabilar tomonidan mamlakat kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, oliy ta'lim bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishga qaratilgan talqiqotlar o'tkazilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorlikni ilmiy asoslash;

kadrlar tayyorlash amal qilishining ilmiy-konseptual asoslarini tadqiq etish;

innovatsion tadbirkorlik modellari bilan kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlarni aniqlash

taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligini tahlil qilish va undan O'zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlarini yoritish;

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy xususiyatlarini aniqlash, amal qilish mexanizmi va rivojlanish tendensiyalarini baholash;

mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini tahlil qilish;

kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik samaradorligini oshirish ustuvorliklarini asoslash;

innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar orqali qo'llab-quvvatlashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;

kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning muqobil ssenariylari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti bo'lib innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o'rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondoshuvga ko'ra "tadbirkorlikda kadrlar ta'minoti" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasasi (oliy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik markazi) va tadbirkor o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbiy kompetentlik standartlari, raqamli innovatsion ekotizim yo'nalishlarida integratsiyalashuvni kuchaytirish nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

tadbirkorlikda kadrlar tayyorlashda samarali sifatida "Targeted Contract" shartnomaviy hamkorlik mexanizmining asoslangan "Kross-funksional" kurslar va "Project-based Learning" ta'lim shakllaridan tarkib topgan "Innovative-firm-based Education" ta'lim modeliga o'tish taklifi asoslangan;

innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarga asoslangan "Industry Advisory Board (CMK)" maslahat kengashlari faoliyatini tashkil etish samarali yechim sifatida asoslangan;

tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish kadrlar tayyorlashda samarali sifatida kelajak kasblariga tayyorlashni nazarda tutuvchi "Duale Ausbildung" bilan "Skills Future" dasturlarining integratsiyalashgan besh bosqichli "InnoMarket" strategik dasturi asosida takomillashtirilgan;

2025-2030-yillardan tadbirkorlik yo'nalishida kadrlar tayyorlashning samaradorligini professional, ilmiy va texnik faoliyat sohasida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi asosida bazis, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorliklar aniqlangan;

kadrlar tayyorlash amal qilishining ilmiy-konseptual asoslari tadqiq etilgan, guruhlangan holda o'ziga xos xususiyatlari baholangan;

innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xususiyatlari aniqlangan;

taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligini ta'minlash borasidagi ilg'or boy tajribasidan O'zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan;

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy xususiyatlari aniqlanib, amal qilish mexanizmi tahlil qilangan va rivojlanish tendensiyalari baholangan;

mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligi holatiga xalqaro tashkilotlar uslubiyoti asosida baho berilgan;

kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik samaradorligini oshirish ustuvorliklari aniqlangan;

innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar orqali qo'llab-quvvatlashning strategik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning muqobil ssenariylari bo'yicha 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Jahon banki, Jahon intellektual mulk agentligi (WIPO), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT), O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz kadrlar tayyorlash amal qilish samaradorligini oshirish asosida innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, jumladan, tadbirkorlik subyektlari uchun yuqori innovatsion samaradorlikka erishish imkonini beruvchi mutaxassislariga bo'lgan talabni samarali qondirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlari, konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Menejment", "Korxona iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Mikroiqtisodiyot" fanlarining ishchi-o'quv

dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondoshuvga ko'ra "tadbirkorlikda kadrlar ta'minoti" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasasi (oliy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik markazi) va tadbirkor o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbiy kompetentlik standartlari, raqamli innovatsion ekotizim yo'nalishlarida integratsiyalashuvni kuchaytirish nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni, 1.a-bandining 5-xatboshida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 10-oktabrdagi 05-33-11789-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish orqali mamlakat kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishga erishiladi;

tadbirkorlikda kadrlar tayyorlashda samarali sifatida "Targeted Contract" shartnomaviy hamkorlik mexanizmining asoslangan "Kross-funksional" kurslar va "Project-based Learning" ta'lim shakllaridan tarkib topgan "Innovative-firm-based Education" ta'lim modeliga o'tish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi "O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 128-son qarori ilovasining 10-tartib raqamli tadbirida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 10-oktabrdagi 05-33-11789-sonli ma'lumotnomasi). Taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik va biznesni boshqarish sohalarining zarur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsiya markazlari va yoshlar texnoparklari asosida kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarini amalga oshirishga erishilgan;

innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarga asoslangan "Industry Advisory Board (CMK)" maslahat kengashlari faoliyatini tashkil etish samarali yechim sifatida asoslangan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son qarori, 1-ilovasining 6-tartib raqamli chora-tadbirida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston

Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 10-oktabrdagi 05-33-11789-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, intellektual mulkni sotish uchun litsenziya shartnomalarini tayyorlashda maslahat yordami berish, texnologiyaning iste'molchilari bozorini qidirish uchun texnologiyalarni litsenziyalash markazlarini tashkil etishga erishilgan;

tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish kadrlar tayyorlashda samarali sifatida kelajak kasblariga tayyorlashni nazarda tutuvchi "Duale Ausbildung" bilan "Skills Future" dasturlarining integratsiyalashgan besh bosqichli "InnoMarket" strategik dasturi asosida takomillashtirilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi "O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 128-son qarori ilovasining 18-tartib raqamli tadbirining 1-punktida keltirilgan mexanizmida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 10-oktabrdagi 05-33-11789-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida ilmiy-tadqiqot + oliy ta'lim + ishlab-chiqarish uyg'unligini ta'minlashga erishilgan;

2025-2030-yillardan tadbirkorlik yo'nalishida kadrlar tayyorlashning samaradorligini professional, ilmiy va texnik faoliyat sohasida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi asosida bazis, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son farmoni, 1a-ilovasining 10-tartib raqamli maqsadli ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 10-oktabrdagi 05-33-11789-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar sohasida sotilgan mahsulotlarning (tovar, ish va xizmatlar) umumiy hajmida innovatsion mahsulotlar (tovar, ish va xizmatlar)ning ulushini 2030-yilga borib 31,6 foizga oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 5 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 14 ta ilmiy maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta ilmiy monografiya nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 205 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishning konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida innovatsion tadbirkorlik bilan kadrdar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorlik ilmiy asoslanib, kadrlar tayyorlashga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan. Jumladan, kadrlar tayyorlash usullari va ular turlarining innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni baholangan.

Iqtisodiy fanda shakllangan ilmiy nazariyalar asosida innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorlikni asoslashda ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlarning ustuvorliklari nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qilishi aniqlandi va olingan natijalar 1-jadvalda keltirib o'tildi. Olingan xulosalar kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi shaklida amal qilib, mamlakatdagi innovatsion muhitni shakllantirish, tadbirkorlik subyektlariga ijodiy yondashuv, hamda texnik-texnologik yangiliklar bilan yaqindan tanishish imkonini berishi kerakligini ko'rsatdi.

1-jadval


Innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorlikni turli ilmiy nazariyalardagi ustuvorliklar jihatdan farqli xususiyatlari⁹

Ilmiy nazariy guruh	Kadrlar tayyorlashning innovatsion tadbirkorlikka ta'siri
Klassik iqtisodiy maktab	Mehnat staji ortishi hisobiga xodimlarda kasbiy kompetentlikning rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish
Innovatsion rivojlanish nazariyalari	Ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlash, sohadagi yangiliklarni, ilmiy loyihalarni amaliyotga joriy etish
Evolutsion iqtisodiy nazariya	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tajribalarning to'planishi va ularning takomillashib borishiga asoslanadi
Inson kapitali nazariyasi	Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish kadrlar tayyorlashning inson kapitalini investitsion samaradorligini ta'minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi
Kreativ iqtisodiy nazariya	Ijodkor sinflarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, ilmiy tadqiqot, yangi g'oyalarni ishlab chiqishni ta'lim orqali rivojlantirish
Neoinstitutsional nazariyalar	Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning infratuzilmaviy ta'minotini yaxshilashda kadrlarga bo'lgan talabga mos keladigan ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish

O'tkazilgan tizimli tahlillar innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslanishida o'zaro o'xshashliklar va tegishli tartibdagi farqli jihatlar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Demak, har bir ilmiy nazariya yo'nalishida innovatsion tadbirkorlik bilan kadrdar tayyorlash o'rtasidagi aloqadorlikni ilmiy asoslanishidagi umumiy xususiyatlar quyidagilardan tashkil topadi: innovatsiyaning markaziy ahamiyati, tadbirkorlikning innovatsiyaning harakatga keltiruvchi kuch sifatida qaralishi,

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishida yuqori malakali mutaxassislar zaruriyati, innovatsion jarayonlar hisobiga sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar va ularga moslashish, hamda ta’lim xizmatlari orqali kasbiy bilim berish.



1-rasm. Kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati¹⁰

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida an’anaviy tadbirkorlik shaklidan innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilishi, jumladan, global darajada turli mamlakatlar o‘rtasida texnologik innovatsiyalar diffuziyasi, ya’ni tarqalishi jarayonlarining jadallashuvi hisobiga kadrlar tayyorlash amal qilishida mehnat bozoridagi kelajakda kasbiy kompetentlik bo‘yicha sodir bo‘lishi kutilayotgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlanishiga erishish lozimligidan dalolat beradi. Kompetensiyon yondashuvlar asosida kadrlar tayyorlash tizimi mehnat bozoriga kognitiv, ijtimoiy-axloqiy va texnologik kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta’lim xizmatlari ko‘rsatish orqali (1-rasmga qarang) amalga oshirishi kerak.

2-jadval

Kadrlar tayyorlash asosida innovatsion tadbirkorlik uchun tayyorlanadigan mutaxassislarning xususiyatlari¹¹

Mutaxassislik xususiyati	Mutaxassislikka qo‘yiladigan talab	O‘zbekiston sharoitidagi muammolar
Ijodiy fikrlash	Yangi g‘oyalarni shakllantirish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish	Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonlari “qoliqlangan” xususiyatga ega bo‘lib, berilayotgan nazariy bilimlar xorij mamlakatlar amaliyotining rivojlanish tarixini yoritish va tushuntirishga qaratilgan, milliy rivojlanish bo‘yicha aniq nazariyalar mustaqillikka erishilganiga qariyb 35 yil bo‘layotganiga qaramay shakllanmagan.
Texnik ko‘nikmalar	Yangi texnologiyalar bilan ishlay olish imkoniyati	Ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda amaliyot bilan bog‘liqlik yo‘qligi sababli, ularning mazmuni va mohiyati hozirgi rivojlanish sharoitiga mos kelmaydi. Bu esa ta’lim dasturlari eskirganligidan dalolat beradi.
Moslashuvchanlik	Jadal texnologik o‘zgarishlarga moslasha olish	Akademik bilimlar amaliyot bilan bog‘lanmagan, jumladan, oliy ta’lim muassasalarida amaliyotni tashkil etishda xususiy sektor vakillari bilan hamkorlik yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, amaliyotchilarga nisbatan ish beruvchilar munosabati ijobiy emas.
Tadbirkorlik ko‘nikmalari	Strategik innovatsion fikrlash va texnologik savodxonlik	Innovatsion kompetensiyaning yetishmasligi, oliy ta’lim muassasalari bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi innovatsion-integratsion jarayonlarning sustligi, innovatsion ta’lim jarayonlari amaliyot bilan bog‘lanmaganligi.

O‘tkazilgan tahlillar kadrlar tayyorlash asosida innovatsion tadbirkorlik uchun tayyorlanadigan mutaxassislarning ijodiy fikrlash, texnik ko‘nikmalarga egaligi va moslashuvchanlik kabi xususiyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarilishini ko'rsatdi (2-jadvalga qarang). Fikrimizcha, keyingi yillarda ushbu sohada mamlakatimiz amaliyotida mavjud muammolarni bartaraf etish asosida innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga erishiladi.

3-jadval

Kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlari ko'rsatish usullaridan foydalanish amaliyotining qiyosiy tahlili¹²

Usullar	Samaradorligi	Qamrov darajasi	Ishtirokchilar faolligi	Kamchiliklari	Afzalliklari
Auditoriyada o'qitish usuli	O'rta darajada	Keng qamrovli	Passiv (tinglaydi)	Faollik kamligi	Tashkil etish oson
Onlayn o'qitish usuli	O'rta darajada	Juda keng qamrovli	Quyi o'rta darajada	Rag'bat va nazorat yetishmasligi	Vaqt va makon tanlamasligi va kamxarjligi
Ish jarayonida o'qitish (OJT) usuli	Juda yuqori darajada	Cheklangan darajada	Yuqori darajada	Mentorga yuqori bog'liqlik	Real ish tajribasiga ega bo'lish
Keys metod usuli	Yuqori darajada	O'rta darajada	Yuqori darajada	Real voqelikka mos keladigan keys tayyorlash qiyin	Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi
Rolli o'yinlar (RP) usuli	O'rta darajada	Cheklangan darajada	Yuqori darajada	Tashkil qilish murakkab	Muloqot qilish bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradi
Seminar va vorkshoplar usuli	Yuqori darajada	O'rta darajada	Yuqori darajada	Qo'shimcha resurs va vaqt talab qiladi	Ishtirokchilar faolligining yuqori darajasi, amaliy yo'nalishga egaligi

Bugungi kunda jahon amaliyotida kadrlar tayyorlash amal qilishida ta'lim xizmatlari auditoriyada o'qitish, onlayn o'qitish (e-L – e-Learning) ish jarayonida o'qitish (OJT – On the Job Training), keys metod, rolli o'yinlar (RP – Role-Play), seminar va vorkshoplar kabi usullar orqali ko'rsatilishi aniqlandi. Mazkur usullardan kadrlar tayyorlashda foydalanish bilan bog'liq xususiyatlarini 3-jadvalda keltirilgan tartibda qiyosiy taqqoslashga erishildi.

Shu bilan birga, jahon amaliyotida an'anaviy, strategik, kompetensiyaga asoslangan va innovatsion (raqamli) kadrlar tayyorlash turlari o'zaro farq qilishi aniqlandi. Mamlakatimiz amaliyotida kadrlar tayyorlashning innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonidagi o'rnini baholash maqsadida uning turlari kesimida qiyosiy tahlil o'tkazildi (4-jadvalga qarang). Kadrlar tayyorlash turlarining amal qilish xususiyatlarini tadqiq etish asosida mamlakatimiz amaliyotida an'anaviy turidan ustuvor ravishda foydalanilayotganligi, jumladan, boshqa kadrlar tayyorlash turlaridan foydalanish maqsadi ham aynan an'anaviy shakldagi boshqaruv turini osonlashtirish uchun amaliyotga joriy etilayotganligi aniqlandi. Bu esa mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birgalikda, ushbu sohada kadrlar ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan muammoni samarali hal etish uchun yetarli imkoniyatni bermaydi.

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

Kadrlar tayyorlash turlarining qiyosiy tahlili¹³


Menejment turi	Maqsadi	Ta'lim ko'rsatish shakli (formati)	Kamchiliklari	Afzalliklari
An'anaviy kadrlar tayyorlash menejmenti	Turli kasblar bo'yicha umumiy bilimlarni berish	An'anaviy shakldagi treninglar, seminar va ma'ruzalarni o'quv xonalarida tashkil etish	Individual yondashuvning yo'qligi sababli, ta'lim xizmatlari innovatsion samaradorligi past	Sodda tartibda tashkil etilib, qamrov darajasi yuqori hisoblanadi
Strategik kadrlar tayyorlash menejmenti	Liderlarni tayyorlash, kasbiy rivojlanishga erishish	Individual va mentorlik dasturlari	Vaqt talab qiladi, chuqur tahlillarni o'tkazish kerak bo'ladi	Kelajak kasblariga yo'naltirilib, mehnat bozorida kadrlar ta'minoti samaradorligini oshiradi
Kompetensiyon kadrlar tayyorlash menejmenti	Individual salohiyatdan samarali foydalanishga qaratilgan	Teskari, ya'ni amaliy baholash, real keyslar asosida o'rganish	Har bir vazifa uchun standartlarni (KPI) ishlab chiqish kerak bo'ladi	Aniq maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishga erishish
Innovatsion (raqamli) kadrlar tayyorlash menejmenti	Masofaviy va interaktiv o'rganish	VR-o'qitish, ye-o'qitish, LMS – platformalari	Oliy ta'lim muassasalarining IT infratuzilmasi yuqori rivojlanish darajasida bo'lishi kerak	Zamonaviy boshqaruv amaliyoti bo'lib, tezkorligi va ommaviyligi bilan xarakterlanadi

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash tizimlarining global rivojlanishdagi umumiy tendensiyalari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda innovatsion tadbirkorlik modellari bilan kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlari tadqiq etilgan, taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligi baholanib, kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ilg'or xorij tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, kadrlar tayyorlash amal qilishida ta'lim xizmatlari tizimli tartibda “innovatsion muhandis-texnolog”, “ma'lumotlarga asoslangan tadbirkor (Data-Driven Entrepreneur) va “STEM-kasbiy tadbirkor” kasbiy profilga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashi hisobiga mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi¹⁴. Shuningdek, “kichik va o'rta innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan davlatning faol ijtimoiy himoya dasturlarini samarali amalga oshirilishi hisobiga global darajada o'rta hisobda kam ta'minlangan aholi guruhlarining turmush darajasini yaxshilashga erishilmoqda.

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁴ Rossi F. Human Capital and Macro-Economic Development: A Review of the Evidence. Policy Research Working Paper No. 8650. Human Development Global Practice, World Bank Group. November 2018. – 39 pages.



2-rasm. Global darajada aholini ijtimoiy himoya qilishning faol dasturlari asosida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi (foizda, 2021-2023-yy.)¹⁵

Tahlillarga ko'ra, global darajada birgina 2021-2023-yillarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kam ta'minlangan aholi guruhlarining jamg'armalari hajmini 82 foizgacha, ular egaligidagi aktivlarni 78 foizga, daromadlarini 75 foizga, iste'moli hajmini 71 foizga, daromad manbalari tarkibi diversifikatsiyalashuvi darajasini 67 foizgacha ortishiga erishilgan. Shu bilan birgalikda, kam daromadli aholi guruhlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ayollar ishtiroki innovatsion tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi hisobiga 57 foizga ko'paygan (2-rasmga qarang). Bunday ijobiy tendensiyalarga erishishda kadrlar tayyorlash ta'lim xizmatlarini tashkil etish orqali texnik bilimlar, tadbirkorlik kompetensiyasi, muloqot o'rnatish va yetakchilik qobiliyati, hamda moslashuvchanlik kabi tarkibiy komponentlardan tashkil topgan kadrlar profilini shakllantirish kerak bo'ladi.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kadrlarni amal qilishida Yevropa Ittifoqi (YEI), IHTT, AQSH kabi innovatsion rivojlanish bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar amaliyotida oliy ta'lim muassasalari uzoq yillardan buyon innovatsion ekotizimning ajralmas qismi sifatida shakllanishga ulgurgan hisoblanadi.

5-jadval

Kadrlar tayyorlash orqali davlat va xususiy sektor o'rtasidagi innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari¹⁶

№	Mexanizm	Mexanizmning amal qilish xususiyati
1	Davlat-xususiy sheriklik (DXSH)	Davlat va xususiy sektor o'rtasida infratuzilmaviy innovatsion loyihalarni o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishini ta'minlash.
2	Strategik klasterizatsiyalash	Ma'lum bir belgilangan hudud doirasida ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'zaro integratsiyalash asosida hududiy tarmoqning innovatsion faolligini oshirish
3	Grantlar ajratish va venchur fondlar	Ushbu mexanizm amaliyo jihatdan moliyaviy ahamiyat kasb etib, innovatsion startaplarni moliyalashtirish amaliyotida keng qo'llaniladi
4	Innovatsion ta'lim standartlari	Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan yuqori malakali kadrlarning kompetentlik talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda turli mutaxassislik va ixtisosliklar bo'yicha malaka talablarini ish beruvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqish talab etiladi

¹⁵ Human Capital for More Jobs: Connecting People to Work and Creating Entrepreneurs. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2024. – 19 pages ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyoti tahliliga ko'ra, kadrlar tayyorlash oliy ta'lim xizmatlarini tizimli tartibda tashkil etish asosida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etishning ustuvor dastaklaridan hisoblanib, bunda davlat-xususiy sheriklik (DXSH), strategik klasterizatsiyalash, grant va venchur fondlar, hamda innovatsion ta'lim standartlari kabi mexanizmlardan keng foydalaniladi (5-jadvalga qarang).

6-jadval

Innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi o'xshash xususiyatlar tahlili¹⁷

Innovatsion tadbirkorlik modeli	Kadrlarga nisbatan talab etiladigan kasbiy kompetentlik	Mos keladigan kadrlar tayyorlash modeli
Texnologik innovatsiya modeli	Ilmiy tadqiqot tajribasi, injenerlik qobiliyati va analitik tahlil salohiyati	"STEM (STEAM, yoki STREAM)" ta'lim modeli
Startup va inkubatorlar modeli	Kreativ yondashuv, tadbirkorlik salohiyati va kasbiy ko'nikmalar (Soft Skills)	"Fikrlash dizayni (Design Thinking)" bilan innovatsion inkubator modellari integratsiyasi
Innovatsion klaster modeli	Tizimli fikrlash, tarmoqlararo aloqalarni rivojlantirish	Interditsiplinar ta'lim (T-Shaped Skills) modeli
Akademik va industrial hamkorlik modeli	Akademik bilimlar, amaliy ko'nikmalar	Dual ta'lim modeli va Loyihaviy ta'lim (project-based learning) modeli
Aqlli (SMART) iqtisodiyot modeli	Zamonaviy IT, raqamli savodxonlik, Big Data bilan ishlash	Kredit-modul tizimi, umrbod ta'lim (LLL – LifeLong Learning) modellari

Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida kadrlar tayyorlash tizimi innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirishda davlat tomonidan kadrlar siyosati yuritishning ustuvor dastaklari qatoridan o'rin egallab, "iqtidorlarni rivojlantirish dasturlari (TDP – Talent Development Programs)", "ko'nikmalarni prognozlash (SF – Skills Forecasting)", hamda "bilimlarni uzatish ofislari (KTO – Knowledge Transfer Offices)" kabi dasturlar asosida milliy inson resurslarini boshqarish strategiyasi (HR (Human Resources) Strategy) amalga oshiriladi.

O'tkazilgan tahlillar innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash amal qilishida o'zaro bog'liqliklar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda mazkur ikki soha o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yo'nalishlarini innovatsion tadbirkorlik va kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi aloqadorlik asosida aniqlash imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi. Ushbu maqsadga erishishda 6-jadvalda keltirilgan tartibda innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modelari o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va ta'sir etish doiralari tahlilini amalga oshirdik. Bunda kadrlar tayyorlash asosida ko'rsatiladigan kasbiy kompetentlik nuqtayi nazaridan innovatsion tadbirkorlik modelida ushbu kompetentlikning ustuvorligiga asoslanildi.

Shu bilan birga, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotida 7-jadvalda keltirilgan boshqaruv strategiyalarini shakllantirishga erishilgan hisoblandi. Shu barobarida, ushbu modellar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi

¹⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

**Innovatsion tadbirkorlik modeli amal qilishi sharoitida kadrlar sohasida
qo'llaniladigan strategik boshqaruv mexanizmlari¹⁸**

№	Strategik boshqaruv mexanizmlari	Boshqaruv strategiyasini amaliyotga joriy etish xususiyatlari
1	“Venchur lab”	Bunda OTM huzurida birznes inkubatorlari tashkil etilib, tadbirkorlikni rivojlantirish fondlari bilan o‘zaro moliyaviy hamkorlik munosabatlari o‘rnatiladi
2	Bilimlarni uzatish (Knowledge Transfer)	Oliy ta’lim muassasalari bazalarida, jumladan, oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy-innovatsion hamkorlik aloqalari o‘rnatgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, ular hisobiga erishilgan natijalarni, shu bilan birgalikda, real vaqtda oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni, xususan, ilmiy tadqiqot olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni talabalarda shakllantirishga ustuvorlik qaratiladi
3	Malakani moslashtirish (Skill Matching)	Bunda kadrlar tayyorlash olim ta’lim muassasalari faoliyatidagi marketing tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda amal qilib, mehnat bozoridagi innovatsion tadbirkorlik subyektlari bazalaridagi mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha tegishli kasbiy kompetentlik talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga ustuvorlik qaratiladi
4	Ilmiy tijorat	Bunda oliy ta’lim muassasalari innovatsion tadbirkorlik faoliyati yuritish bo‘yicha “biznes markaz”ga aylanib, ular faoliyatida “ta’lim+tadqiqot+tadbirkorlik” dasturlari o‘zaro mutanosiblikda amal qiladi. Ilmiy adabiyotda bu turdagi oliy ta’lim muassasalari “tadbirkor” OTMlari sifatida ham baholanadi.

xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi: bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchilik tabiati; tizimli integratsiyalashuvning zaruriyati; kadrlar tayyorlashda qayta tayyorlash va kasbiy-kompetension yangilanishning uzluksizligi. O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellari o‘rtasida funksional, institutsional va strategik jihatdan bog‘liqlik mavjud bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelindi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Xitoy mamlakatlarida innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamlangan tajribalaridan mamlakatimizda ijodiy foydalanish imkoniyatlariga aniqlik kiritish maqsadida chuqur qiyosiy tahlilni amalga oshirishni lozim topdik. Qiyosiy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga erishildi:

birinchi, barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash davlat dasturlari va oliy ta’lim muassasalari bilan sanoat korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro innovatsion hamkorlik aloqalari markaziy ahamiyat kasb etadi;

ikkinchi, AQSH amaliyotiga ko‘ra, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash innovatsion ekotizimda ustuvor ahamiyat kasb etgan holda, ijodkor sinflarni rivojlantirish va ular mustaqilligining ta’minlanishiga ustuvorlik qaratilishi bilan xarakterlanadi;

uchinchi, Buyuk Britaniya boshqa mamlakatlarga nisbatan kadrlar tayyorlashda innovatsion tadbirkorlik ta’limini barcha mutaxassisliklar kesimida tashkil etganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mamlakatda innovatsion startaplarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash amaliyoti tizimli tartibda tashkil etilgan hisoblanadi;

¹⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

to'rtinchi, Yaponiya va Germaniya amaliyotlari deyarli bir-biriga yaqin bo'lib, ularda kadrlar tayyorlash korporativ innovatsion madaniyatni shakllantirish va ishlab chiqarish bilan oliy ta'lim xizmatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash asosida innovatsion salohiyati yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga ustuvorlik qaratiladi. Shuningdek, dual ta'lim modeli Yaponiyaga nisbatan ko'proq Germaniya amaliyotida yaqqol namoyon bo'ladi;

beshinch, Xitoy innovatsion tadbirkorlikni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlashda markazlashgan boshqaruv amaliyotiga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lib, bunda davlat siyosati ustuvor ahamiyat kasb etib, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari jadal rivojlanib kelayotganligi bilan xarakterlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlash amaliyotidan mamlakatimizda quyidagi yo'nalishlarda ijodiy foydalanish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi: oliy ta'lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik ta'limi markazlarini tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari bilan sanoat korxonalari o'rtasida ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini kuchaytirish; innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari ta'sirchanligini oshirish; innovatsion rivojlanishda oliy ta'lim muassasalarini davlat va xususiy sheriklik mexanizmiga integratsiyalash; innovatsion rivojlanishni kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlashning huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish.

8-jadval

O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellarini integratsiyalash imkoniyatlari¹⁹

Integratsiya yo'nalishi	Amalga oshirish mexanizmi
Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi	Dual ta'lim va stajirovka (amaliyot) dasturlari miqyosini kengaytirish
Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish	Har bir oliy ta'lim muassasasi huzurida "Texnologik transfer offisi (Tech Transfer Office)" faoliyatini tashkil etish
Kadrlarni qayta tayyorlash	"Umrbod ta'lim (Lifelong Learning)" dasturlarini innovatsion yo'nalishlarda qayta ko'rib chiqish
Kasbiy kompetentlik standartlari	Innovatsion tadbirkorlikning tarmoq va soha bo'yicha xususiyatlaridan kelib chiqib, milliy kompetensiyalar standartlari ishlab chiqish
Raqamli innovatsion ekotizim	Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik uchun onlayn o'quv kurslari, jumladan, simulyatorlar va virtual laboratoriyalarni tashkil etish


Yuqorida bildirilgan takliflarni amaliyotga joriy etish asosida mamlakatda innovatsion rivojlanish bilan kadrlar tayyorlash modellarini ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbiy kompetentlik standartlari va raqamli innovatsion ekotizim yo'nalishlari bo'yicha integratsiyalashga erishiladi (8-jadvalga qarang). O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellari o'rtasidagi kuchli funksional, strategik va institutsional bog'liqlikni ta'minlash yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

amaliyotida foydalanilishi innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlashda tizimli ravishda zamonaviy akademik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va ijodiy-kreativ fikrlash bo‘yicha yuqori salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislarni yetishtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlashning tutgan o‘rni”** deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy xususiyatlari aniqlangan, kadrlar tayyorlash amal qilish mexanizmi va uning rivojlanish tendensiyalari baholangan. Jumladan, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligi Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) yondashuvi asosida tahlil qilingan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo‘llab-quvvatlashda har ikkala soha uchun xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar (3-rasmga qarang) mavjud ekanligi aniqlandi. Jumladan, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlari yangi texnologiyalardan foydalanish, risk va noaniqlik sharoitida ishlash, ta‘lim va ilm-fan bilan bog‘liqlik, hamda qo‘shilgan qiymat yaratishga intilish bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, kadrlar tayyorlash uchun quyidagi xususiyatlar xos ekanligi aniqlandi: talab yuqori bo‘lgan sohalar uchun kadrlar yetishtirish; ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda innovatsion yondashuvlarga tayyorlash; ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarni jalb qilish; joriy va istiqboldagi bozor ehtiyojlariga moslashish.




3-rasm. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish xususiyatlari²⁰

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan mamlakatda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning huquqiy-institutsional asoslarini tadqiq etish asosida sohaga tegishli bo‘lgan qator muammolar aniqlangan bo‘lib, ular 10 ballik baholash tizimida baholangan. Olingan natijalarga ko‘ra, mamlakatda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion

²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ilmiy-texnik tadqiqotlarni o'tkazish va kadrlar salohiyati yetishmasligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi, yaratilgan shart-sharoitlarning qoniqarsizligi va mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining muvofiqligi talab darajasida ta'minlanmaganligi (4-rasmga qarang) kabi tizimli muammolar mavjud ekanligi aniqlandi.



4-rasm. O'zbekistonda kadrlar orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi mavjud muammolar²¹

Kadrlar tayyorlash nafaqat ish beruvchilarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, balki mamlakat innovatsion ekotizimi amal qilishida ham ishtirok etib, ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda, shuningdek, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarining amalga oshirilishida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunda oliy ta'lim muassasalari bilan xususiy sektor vakillari o'rtasida tuzilgan innovatsion ahamiyatga ega shartnomaviy hamkorlik mexanizmidan foydalaniladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida kadrlar tayyorlash amal qilish mexanizmi va uning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirish uchun o'tkazilgan tadqiqotlar asosida 2017-2024-yillardagi holatlarni o'zaro qiyosiy taqqoslash kerak bo'ladi. Bunda kadrlar tayyorlash amal qilishi, jumladan, uning innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq bo'lgan kadrlarni tayyorlashdagi ta'lim dasturlari, kadrlarni qayta tayyorlash, raqamli transformatsiyalashuv, kadrlar tayyorlashning xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi, ish beruvchi bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi "targeted contract", ya'ni o'zaro hamkorlikning shartnomaviy mexanizmida kadrlarni tayyorlash va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish yo'nalishlari bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazishga erishildi. O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari 9-jadvalda keltirib o'tildi.


Tahlillarga ko'ra, 2017-2024-yillarda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi bo'yicha strategik maqsad va vazifalarga erishilishida muhim ahamiyat kasb etib, ta'lim tizimi, mehnat bozori va xususiy sektorda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli

²¹ На пути к технологической трансформации стран СПЕКА: инновационный императив для устойчивого развития. Справочно-аналитический документ для второй сессии Рабочей группы СПЕКА по инновациям и технологиям для устойчивого развития, 20-21 октября 2021 года, Бишкек (Кыргызстан), и шестнадцатой сессии Руководящего совета СПЕКА, 19 ноября 2021 года, Ташкент (Узбекистан). 60 с. ma'lumotlari asosida tuzilgan

Yangi O‘zbekiston sharoitida kadrlar tayyorlash amal qilish mexanizmidagi o‘zgarishlar²²

№	Qiyosiy tahlil mezonlari	2017-yil	2024-yil
1	Kadrlar tayyorlashdagi ta’lim dasturlari	Tizimli tartibda zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan islohotlar boshlangan davr	Kompleks yangilangan, modulli tizim asosida keng foydalanish imkoniyati yaratilgan
2	Kadrlarni qayta tayyorlash	Qamrov darajasi past	“Ishga marhamat” monomarkazlari asosida hududiy yondashuv amal qilib, bepul kurslar hisobiga qamrov darajasi ortgan
3	Raqamlashtirish darajasi	Nisbatan rivojlanmagan, raqamli dasturlardan foydalanish imkoniyatlari aniqlash bosqichi	Kadrlar tayyorlashning barcha bosqichlari raqamlashtirilib, onlayn-masofaviy tizimlar joriy etilgan
4	Xalqaro standartlarga integratsiyalashuv	Kam sonli xorijiy OTM filiallari faoliyat yuritgan, lekin milliy kadrlar tayyorlash xalqaro standartlarga integratsiyalashmagan	Mahalliy oliy ta’lim muassasalari, jumladan, ta’lim dasturlari xalqaro darajada akkreditatsiyadan o‘tkazilib, global kadrlar tayyorlash tizimiga integratsiyalashuvi ortmoqda, jumladan, 27 ta xorijiy OTM filiallari tashkil etilgan
5	Oliy ta’lim bilan xususiy sektor o‘rtasidagi shartnomaviy hamkorlik mexanizmi	“Targeted contract” asosida rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash bo‘yicha ishlar boshlangan	“Targeted contract” asosida oliy ta’lim muassasalari bilan xususiy sektor vakillari o‘rtasida kadrlar tayyorlash va innovatsion hamkorlikning shartnomaviy mexanizmlari rivojlantirilmoqda, jumladan, innovatsion startap ekotizimlari shakllantirilgan

transformatsiyalashuvni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirish borasidagi islohotlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirilib kelayotganligini ko‘rsatdi.




5-rasm. O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotga sarflanayotgan ish vaqti hajmi (1 mln aholiga nisbatan to‘liq ish vaqti (bir stavka) hisobida, 1 kishi uchun to‘liq (bir stavkadagi) yillik ish vaqti 2080 soatni tashkil etadi)²³

Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo‘llab-quvvatlashda ilmiy tadqiqotlar uchun sarflanadigan vaqt hajmi innovatsiyalarni o‘zlashtirish va ularni takomillashtirish bilan bog‘liq jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston kadrlar tayyorlashda ilmiy tadqiqotlarga sarflangan vaqt hajmi 2013-2024-yillarda 12,7 foizga ortib, 1 mln. aholiga nisbatan baholanganda 575,5 soatni tashkil etgan (5-rasmga qarang). Ilmiy tadqiqotlarga vaqt sarfi bo‘yicha O‘zbekiston ko‘rsatkichi taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan

²² Muallif tomonidan tuzilgan.


²³ GII Innovation Ecosystems & Data Explorer 2024. World Intellectual Property Organization (WIPO). URL: <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/> ma’lumotlari asosida tuzilgan

qayd etilgan ko'rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada past bo'lib, bu mazkur yo'nalishda tegishli choralarni ko'rish zaruriyatini oshiradi.



6-rasm. O'zbekistonda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hajmi (jami sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan foizda)²⁴

Statistik ma'lumotlar mamlakat sanoat ishlab chiqarishining 2013-2024-yillarda o'rta hisobda qariyb 1/4 qismi, aniqrog'i, 24,34 foizi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga ega bo'lgan hisoblanadi (6-rasmga qarang). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu ko'rsatkich mamlakat sanoat ishlab chiqarishining texnologik ta'minotiga nisbatan baholanib, global darajada yuqori texnologik ishlab chiqarishga ega bo'lgan milliy iqtisodiyotlarga kirish imkoniyatini anglatuvchi ishlab chiqarish va eksport murakkabligi ko'rsatkichlari asosida baholanadi.



7-rasm. O'zbekistonda ishlab chiqarish va eksport murakkabligi indeksi²⁵

Tahlillarga ko'ra, o'rganilayotgan davrda mamlakatda ishlab chiqarish va eksport murakkabligi ko'rsatkichi salbiy natija qayd etib (7-rasmga qarang), ochiq iqtisodiy munosabatlar sharoitida eksportga bog'liqlik darajasi ortib ketishi ehtimoli yuqori sanaladi. Mamlakatda ishlab chiqarish va eksport murakkabligi indeksining salbiy natijaga ega bo'lganligi kadrlarni tayyorlashda ma'naviy eskirgan innovatsiyalar o'zlashtirilganligidan dalolat beradi. Ushbu holat kadrlar

²⁴ GII Innovation Ecosystems & Data Explorer 2024. World Intellectual Property Organization (WIPO). URL: <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/> ma'lumotlari asosida tuzilgan

²⁵ GII Innovation Ecosystems & Data Explorer 2024. World Intellectual Property Organization (WIPO). URL: <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/> ma'lumotlari asosida tuzilgan


tayyorlashda innovatsiyalarni o‘zaro uzatishda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirilishi mazkur soha bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda, keyingi yillarda mamlakatda innovatsiyalarni o‘zlashtirish va o‘zaro uzatish bo‘yicha “quvib yetuvchi (Catch-up)” milliy strategiyani ishlab chiqishda raqamli dasturlardan foydalanishga ustuvorlik qaratish talab etiladi.

Tadqiqot ishining to‘rtinchi bobi **“O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda mamlakatda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik samaradorligini oshirish ustuvorliklari, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar orqali qo‘llab-quvvatlash strategik yo‘nalishlari aniqlanib, 2025-2030-yillarda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning muqobil ssenariylari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

O‘tkazilgan tahlillar mamlakat kadrlar tayyorlashda amal qilayotgan “Targeted Contract” shartnomaviy hamkorlik mexanizmi innovatsion tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirish uchun yetarli darajada to‘liq amal qilmayotganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, “Targeted Contract” shartnomaviy hamkorlik mexanizmining “ilm-fan – ta’lim – ishlab chiqarish” o‘rtasidagi integratsion munosabatlarni kuchaytirishida ta’limda talabga yo‘naltirilgan marketing dasturlariga asoslangan kadrlar tayyorlashga o‘tish lozim, deb hisoblaymiz.


Keyingi yillarda mamlakatda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirishda “Targeted Contract” shartnomaviy hamkorlik mexanizmniga asoslangan “Innovative-firm-based Education” ta’lim modeliga (3-rasmga qarang) o‘tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bugungi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan kadrlar tayyorlashda ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlarining mazmuni, oliy va kasbiy ta’lim muassasalarini boshqarish amaliyoti, oliy ta’lim muassasalari bilan xususiy sektor vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishi, mamlakatda texnologik rivojlanishni ta’minlanishida innovatsion ekotizimlar faoliyati holati, xalqaro tajribalardan mamlakat amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari taklif etilayotgan “Innovative-firm-based Education” ta’lim modeliga o‘tish samaradorligini ta’minlaydi.

Mamlakat kadrlar tayyorlashda “Targeted Contract” shartnomaviy hamkorlik mexanizmniga asoslangan “Innovative-firm-based Education” ta’lim modeliga o‘tishi uzoq muddatli istiqbolida kadrlar tayyorlash orqali mamlakatda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish imkoniyatini berib, innovatsion rivojlanish bo‘yicha mamlakatning xalqaro reyting tizimlaridagi tutgan o‘rini oshirish, jumladan, mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyati yuritish muhitini takomillashtirish, mehnat bozorida aholining samarali bandligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ustuvor vazifalarni hal etish uchun zamin yaratadi.



8-rasm. Kadrlar tayyorlashda “Targeted Contract” shartnomaviy hamkorlik mexanizmiga asoslangan “Innovative-firm-based Education” ta’lim modelining amal qilishi²⁶

²⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.



9-rasm. O‘zbekiston kadrlar tayyorlashda “SMK (Industry Advisory Board)”dan foydalanishning tashkiliy tuzilishi²⁷

AQSH, Buyuk Britaniya va Singapur kabi mamlakatlar kadrlar tayyorlashda “Industry Advisory Board (Sanoat maslahat kengashi – SMK)” tashkil etilishi, jumladan, uning amal qilish xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi, faoliyat yo‘nalishining ustuvorliklari, maqsadi va vazfalari, innovatsion rivojlanish talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotidan O‘zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish mumkin bo‘lgan xususiyatlari aniqlandi. O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston kadrlar tayyorlashda “SMK”dan foydalanishning tashkiliy tuzilishi (9-rasmda keltirilgan) tartibda bo‘lishini ko‘rsatdi.

Keyingi yillarda mamlakatda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kadrlar orqali qo‘llab-quvvatlashning strategik yo‘nalishlari sifatida “InnoMarket”

²⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

dasturini amaliyotga joriy etish zarur, deb hisoblaymiz. Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, "InnoMarket" dasturi asosan kichik va o'rta turdagi innovatsion tadbirkorlik subyektlari, jumladan, yoshlarni ushbu sohaga jalb qilish samaradorligini ta'minlashi bilan ahamiyatli sanaladi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, jahonda mazkur dastur samarali amal qilib kelayotgan Germaniya va Singapur kabi yetakchi mamlakatlar amaliyotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida undan O'zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish imkoniyatlarini (10-jadvalga qarang) aniqlashni lozim topdik.

10-jadval

"InnoMarket" dasturi asosida kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar amaliyoti qiyosiy tahlili²⁸

Qiyosiy tahlil mezonlari	Germaniya (Duales Auszubildung)	Singapur (Skills Future)	O'zbekiston (InnoMarket - taklif)
Maqsad	Kasbiy bilim va ishlab chiqarish tajribasini uyg'unlashtirish	Barcha yosh guruhlar uchun umrbod malaka oshirish imkoniyati	Yoshlar va mutaxassislarda innovatsion tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish
Asosiy yo'nalish	Kasbga tayyorlashda nazariya + ish joyida amaliyot	Kurslar, sertifikatlar, raqamli malaka dasturlari	Startaplar yaratish, akseleratsiya, grantlar
Innovatsion integratsiya	"Sanoat-4.0" texnologiyalari, avtomatizatsiya	Raqamli texnologiyalar, fintex, "yashil" texnologiyalar	IT, agroinnovatsiya, biotexnologiya, turizm
Moliyalashtirish	Ish beruvchi va hukumat qo'shma mablag'lari	Davlat subsidiyalari, xususiy investitsiya hissasi	Davlat grantlari (50–200 mln so'm), hamkorlik loyihalari
Amaliyot ulushi	50% nazariya, 50% ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot	Amaliyot ko'proq simulyatsiya va onlayn treninglar orqali tashkil etiladi	3-6 oylik bitiruv oldi amaliyoti va mentorlik
Natija baholash	Ishga joylashish darajasi, ishchi kuchining raqobatbardoshligi	Individual malaka portfeli, mehnat bozori integratsiyasi	Startap soni, eksport hajmi, yoshlar ko'nikma indeksi

Kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ushbu ikki mamlakat amaliyotining ijobiy jihatlarini o'zaro integratsiyalashtirgan holda, mamlakatimiz amaliyotida "InnoMarket" dasturidan foydalanish amaliyotiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashga erishildi. Ushbu strategik dastur O'zbekistonda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida kadrlar salohiyatidan samarali foydalanilishini ta'minlash orqali yangi startaplar va yuqori qo'shilgan qiymatga ega innovatsion tadbirkorlik faoliyatini yaratishga qaratilgan bo'lib, 11-jadvalda keltirilgan besh bosqichda amalga oshiriladi.

Umuman olganda, O'zbekiston kadrlar tayyorlashda "InnoMarket" strategik dasturi orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlanishi natijasida uch yilgacha bo'lgan davrda eng kamida 200 ta innovatsion startap loyihalarini

²⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

ishlab chiqish, yoshlar o'rtasida innovatsion tadbirkorlik ko'nikmalarini 40,0 foizga oshirish, hamda mahalliy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan innovatsion, eksportbop mahsulot va xizmatlar hajmini barqaror sur'atlarda oshib borishga erishiladi.

11-jadval


O'zbekiston kadrlar tayyorlashda "InnoMarket" strategik dasturini amalga oshirish bosqichlari²⁹

Bosqich	Nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi
I	Talablarni aniqlash	Tarmoq va hududlardagi kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash
		Innovatsion va raqamli rivojlanish ko'nikmalari bo'yicha kasblar kesimidagi mezonlarni belgilash
II	Ta'lim va amaliyot integratsiyasi	Oliy ta'lim muassasalarida "Innovatsion tadbirkorlik" yo'nalishida modulli o'quv dasturlarini joriy etish
		Korxonalar bilan hamkorlikda 3-6 oylik bitiruv oldi amaliyot dasturlarini shakllantirish
III	Mentorlik va akseleratsiya	Tajribali tadbirkorlik subyektlari, jumladan, yetakchi investorlar ishtirokida akseleratsiya dasturlarini tuzish
		Xalqaro darajada yuqori nufuzga ega bo'lgan "EdX", "Coursera" kabi onlayn kurslarga integratsiyalashish
IV	Investitsiya va tashqi bozorlarga chiqish	"Yosh innovator" mahalliy grantlar tizimi orqali startaplarga 50-200 mln. so'mlik moliyaviy resurslar ajratish
		Tashqi bozorlarga chiqishda "Eksport-marketing" ko'maklashish dasturini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy qilish
V	Samaradorlikni baholash	Yaratilgan startaplar soni, ish o'rinlari, hamda eksport hajmidagi o'zgarishlarni yillik va oraliq baholab borish
		Ishchi kuchining raqobatbardoshlik indeksini baholashni yuritish

Iqtisodiy-matematik usullar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari mamlakat kadrlar tayyorlashda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda, oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanish bo'yicha mavjud muammolarini hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Demak, birinchi bazis ssenariy bo'lib, bunda vaqt omilining o'zgarishi hisobiga mamlakat kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2010-2024-yillarda kuzatilgan tendensiyalar saqlanib qolishiga asoslaniladi. Bazis ssenariylar asosida o'tkazilgan hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat kadrlar tayyorlashda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida 2010-2024-yillardagi amalga oshirilgan islohotlar shu yo'sindagi rivojlanish tendensiyalarini saqlab qolgan taqdirda, 2025-2030-yillarda professional, ilmiy-texnik faoliyat sohasida yaratiladigan qo'shilgan qiymat hajmi 12,2 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi (10-rasmga qarang).

²⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.



10-rasm. Kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash samaradorligining prognoz ko'rsatkichlari (doimiy narxlarda, mlrd. so'mda)³⁰

Pessimistik ssenariylar mamlakat kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro shartnomaviy hamkorlik mexanizmi asosida ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarning amal qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, yuqori malakali kadrlarga nisbatan bozor talablari, ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirilmasligi, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion ehtiyojlari asosida ITTKIni amalga oshirilmasligi kabi omillar ta'sirini qo'shimcha 5,0 foizga oshirdi. Mazkur ssenariy bo'yicha prognozlar 2025-2030-yillarda professional, ilmiy-texnik faoliyat sohasida yaratiladigan qo'shilgan qiymat hajmi 8,9 foizga qisqarishi mumkinligini ko'rsatdi (10-rasmga qarang).

Optimistik ssenariylar asosida hisoblangan prognozlarda mamlakat kadrlar tayyorlashda bozor talablari, jumladan, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarga bo'lgan ehtiyojlarini samarali qondirishga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari bilan xususiy sektor vakillari o'rtasidagi shartnomaviy hamkorlik mexanizmining takomillashtirilishi hisobiga erishiladigan ehtimoliy natijalarga asoslangan bo'lib, hisob-kitoblar asosida professional, ilmiy va texnik faoliyatida yaratilayotgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi qariyb 31,6 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi.

XULOSA

Doktorlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash orqali kreativ fikrlash, texnologik savodxonlik darajasiga, muvaffaqiyatli muloqot qilish, tadbirkorlik tafakkurini yuritish va mustaqil qaror qabul qilish kabi bazis kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi.

2. Kadrlar tayyorlash amal qilishida ta'lim xizmatlari tizimli tartibda "innovatsion muhandis-texnolog", "ma'lumotlarga asoslangan tadbirkor (Data-Driven Entrepreneur)" va "STEM-kasbiy tadbirkor" kasbiy profilga ega bo'lgan

³⁰ Muallif tomonidan hisoblangan.

mutaxassislarni tayyorlashi hisobiga mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

3. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik bilan kadrlar tayyorlash modellarini o'zaro integratsiyalash yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topadi: ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash, kasbiy kompetentlik standartlari, raqamli innovatsion ekotizim.

4. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash amal qilish mexanizmlarining samaradorligi quyidagicha ekanligi aniqlandi: mahalliy ta'lim dasturlari – o'rta yuqori samaradorlik, kasbiy tayyorgarlik markazlari – yuqori samaradorlik, xalqaro hamkorlik – o'rta samaradorlik, raqamli ta'lim platformalari – o'rta yuqori samaradorlik.

5. Mamlakat kadrlar tayyorlash "Targeted Contract" shartnomaviy hamkorlik mexanizmining "ilm-fan – ta'lim – ishlab chiqarish" o'rtasidagi integratsion munosabatlarni kuchaytirish imkonini beruvchi "Innovative-firm-based Education" ta'lim modeliga o'tishi maqsadga muvofiq. Ushbu modelga o'tishda "Kross-funksional" kurslar, "Project-based Learning" ta'lim shakli, hamda "F-S-IB" amaliy kurslari kabi innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish kerak bo'ladi.

6. Mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlashda mehnat bozori tahlili, ta'lim dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va stajirovka tizimi, innovatsion va ilmiy tadqiqot kabi tarkibiy komponentlardan tashkil topgan oliy ta'lim muassasalari huzuridagi "Industry Advisory Board (SMK)" faoliyatini tashkil etish talab etiladi.

7. Yangi O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini kadrlar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlashda Germaniyaning "Duale Ausbildung", hamda Singapurning "Skills Future" dasturlarining mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan yo'nalishlaridan tashkil topgan "InnoMarket" strategik dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq.

8. Iqtisodiy-matematik usullar asosida o'tkazilgan tahlillar kadrlar tayyorlashda ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarning o'rnatilishida mavjud salohiyatdan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatdi.

9. Mamlakatda kadrlar tayyorlash orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash samaradorligi bo'yicha prognozlarga ko'ra, professional, ilmiy-texnik faoliyat sohasida yaratiladigan qo'shilgan qiymat hajmi 2025-2030-yillarda pessimistik ssenariylarda 8,9 foizga kamayishi, jumladan, bazis ssenariyda 12,2 foizga, optimistik ssenariyda esa 31,6 foizga ortishi ehtimoli mavjud ekanligi aniqlandi.

ЭРГАШЕВ ТУЛКИН ШОКИРОВИЧ

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В ИННОВАЦИОННОМ
РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

08.00.15 – Предпринимательство и экономика малого бизнеса

АФТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) экономических наук

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2025.3DSc/Iqt1017 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Абдуллаев Аслиддин Жунайдилович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Низомов Аслиддин Бадриддинович**
доктор экономических наук, профессор

Арабов Нурали Уралович
доктор экономических наук, профессор

Асқаров Назимжон Ниёзович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Каршинский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится в _____ часов _____ 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.08.03 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за №.....). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года

(реестр протокола рассылки № __ от «___» _____ 2026 года



О.Х.Хамидов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Д.Ш.Явмутов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Б.Н.Навруз-зода
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ(аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире достигается повышение уровня инновационной активности субъектов предпринимательства за счет повышения эффективности инновационной деятельности предпринимательства, в конечном итоге, освоения инноваций в индивидуальной или групповой форме, расширения инновационного сотрудничества между субъектами предпринимательства и научными центрами, ускорения практики коммерциализации инноваций, обеспечения эффективности привлечения инвестиций с участием венчурного капитала в стартап-проекты. Также «в результате развития инновационной предпринимательской деятельности на глобальном уровне страны демонстрируют следующие тенденции по количеству современных рабочих мест нового типа, основанных на знаниях, на рынке труда: в 2024 году количество рабочих мест, основанных на знаниях, на рынке труда США составило 52,7 процента от общего количества рабочих мест, в Великобритании - 52,2 процента, в Германии - 46,8 процента»,³¹ что послужило значительному повышению показателей инновационной активности субъектов предпринимательства в странах, повышает необходимость обеспечения эффективности подготовки кадров в устойчивом развитии инновационной предпринимательской деятельности.

В мире в научных исследованиях, проводимых по повышению эффективности подготовки кадров в развитии инновационной предпринимательской деятельности, увеличивается количество научных исследований, направленных на повышение инновационной активности отраслей национальной экономики за счет подготовки кадров, отвечающих требованиям профессиональной компетентности, что позволяет установить отношения сотрудничества между высшими учебными заведениями и субъектами предпринимательства по обеспечению кадрами и инновационными проектами, повысить эффективность использования потенциала развития инновационного предпринимательства, коммерциализировать научно-исследовательские работы (R&D) за счет углубления интеграционных отношений между образованием-наукой-производством, а также расширить участие субъектов предпринимательства в процессе разработки инновационных проектов, определить структуру и конкретные целевые приоритеты стратегических программ развития, направленных на достижение уровня освоения инноваций в деятельности субъектов предпринимательства.

В условиях Нового Узбекистана эффективность использования потенциала развития инновационной предпринимательской деятельности в отраслях национальной экономики характеризуется освоением инноваций за счет эффективного решения существующих проблем в системе кадрового обеспечения, в том числе расширением участия субъектов предпринимательства на рынке инноваций, ускорением коммерциализации

³¹ GII Innovation Ecosystems & Data Explorer 2024. World Intellectual Property Organization (WIPO). URL: <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/>

научно-исследовательских работ (R&D)), достижением глубоких инновационно-интеграционных отношений между образованием-наукой-производством, направленностью на повышение эффективности инфраструктурного обеспечения инновационной экосистемы в разрезе регионов республики. В частности, на основе обеспечения эффективности подготовки кадров в стратегических программах развития государства, таких как «Концепция развития системы высшего образования до 2030 года»³², «Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»³³, «Стратегия инновационного развития на 2022-2026 годы»³⁴ и «Стратегия Узбекистан-2030»³⁵, разрабатываются целевые параметры для достижения практической эффективности внедрения инноваций в деятельность местных субъектов предпринимательства, в частности, улучшения позиции национальной экономики в глобальных рейтингах за счет достижения инновационных сдвигов в отрасли.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации приоритетных задач, обозначенных в Законах Республики Узбекистан № ЗРУ-630 «Об инновационной деятельности» от 24 июля 2020 года, № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, № ЗРУ-642 «О занятости населения» от 20 октября 2020 года, Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» от 6 июля 2022 года, № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан - 2030» от 11 сентября 2023 года, № УП-86 «О мерах по реализации инициативы «Одаренные дети Президента» от 15 мая 2025 года» и других нормативно-правовых документах относительно данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³⁶. Исследования, посвященные повышению инновационной активности

³² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони. 08.10.2019 й.

³³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони. 28.01.2022 й.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг Инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон фармони, 06.07.2022 й.

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон фармони, 11.09.2023 й

³⁶ Диссертация ишида қуйидаги хорижий илмий тадқиқотлар ва иқтисодчи олимларнинг илмий изланишларидан фойдаланилган: New School Management Approaches: What Works in Innovation in Education.

предпринимательства за счет обеспечения занятости инновационно мыслящих кадров на предприятиях путем разработки стандартов, направленных на повышение эффективности подготовки кадров для инновационного развития предпринимательской деятельности, углубления отношений инновационного сотрудничества между субъектами предпринимательства и высшими учебными заведениями в направлениях обеспечения кадрами и инновационными проектами на основе их внедрения в практику, разработки норм системы стандартов по защите интеллектуальной собственности, соответствующих современным условиям развития, связанных с развитием инновационной деятельности субъектов предпринимательства, формирования компетентностных требований в разрезе создаваемых рабочих мест по уровню развития инновационного предпринимательства, проводятся международными экономическими организациями, а также ведущими высшими учебными заведениями и научно-исследовательскими институтами мира, среди которых Всемирное агентство интеллектуальной собственности, Всемирный банк, Организация Объединенных Наций, Центр образования, исследований и инноваций (Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), Европейская комиссия, организации, участвующие в функционировании системы подготовки кадров, отвечающей требованиям инновационного предпринимательства в различных странах, например, Институт исследований занятости (Великобритания), Федеральная межведомственная группа по передаче технологий (США), Управление энергетики и науки США (США).

В научных исследованиях, проведенных в мире по совершенствованию методологических основ повышения эффективности подготовки кадров в инновационном развитии предпринимательской деятельности, получены следующие результаты: формирование системы инновационного кадрового обеспечения, соответствующей уровню профессиональной компетентности по новым рабочим местам на рынке труда, основанным на знаниях, на основе разработки инновационных проектов, научно-исследовательских работ, в том числе интеллектуальной собственности, то есть повышения эффективности нематериальных активов (WIPO); обеспечение эффективности освоения инноваций за счет углубления инновационно-интеграционных отношений

